



IQTISODIYOTDA ISLOM MOLIYASI TUSHUNCHASI.

Mangliyev Ulug'bek Umidbekovich

Oriental universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14919241>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-fevral 2025 yil

Ma'qullandi: 12-fevral 2025 yil

Nashr qilindi: 24-fevral 2025 yil

KEY WORDS

Qur'on, hadis, moliya, aldov, bay, narx, ribo, islom moliyasi, moddiy ta'minot.

ABSTRACT

Ushbu maqolada islom moliyasining bugungi kundagi turli xil fikrlar orqai turlicha talqin qilinayotgani va undagi ba'zi muomalalarda an'anaviy moliyadan qanday jihatlardan farqlanishini: ilmiy va islom olimlarining moliya bo'yicha farqlab beruvchi sifatida foydalanish mumkin.

Islom iqtisodiy tizimining o'ziga xos jihati shundaki, u insonlarning moddiy ehtiyojlaridan tashqari ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini ham inobatga oladi va shu sababli erkin bozor qonunlarini ma'qullagan holda, jamiyat manfaatlarini ta'minlash hamda shu erkin bozorda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan adolatsizliklarni oldini olish maqsadida muayyan ma'naviy-axloqiy chegaralar o'rnatadi. Shunga ko'ra, islom iqtisodiyotining maqsadi ma'naviy mas'uliyatga ega bozor iqtisodiyoti tizimini o'rnatish deyish mumkin. Zero, islom iqtisodiyotida boyliklarning jamiyat ichida adolatli taqsimlanishi va shu orqali ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Boyliklarni yaratish va taqsimlashning eng adolatli usuli esa, bu biznes-sherikchilikdir, chunki bunda, amalga oshirilgan faoliyat samarasi barcha sheriklar o'rtasida adolat bilan taqsimlanishi uchun muayyan sharoit yaratiladi¹.

Shunaday sharoitlarni yaratish, sheriklar, sotuvchi va oluvchi o'rtasida turli xil nizolar chikmasligi uchun savdo bo'lishidan oldin bir kancha shartlarni bayon qilishgan.

Islom moliyasi ulamolari iqtisodiy moliyaviy muomalalarga oid dalillarni ham o'rganib chiqqanlaridan keyin, savdo paytida quyidagi shartlar bo'lishi kerak degan xulosaga kelganlar. Ayni paytda insonlar orasida tortishuvlarni sababi ham shu qoidalarga amal qilmaslik desak adashmaymiz.

1. Muomalaga qo'yilayotgan narsa kelishuv vaqtida mavjud bo'lishi kerak.

Yo'q narsani muomalaga qo'yib bo'lmaydi. Masalan, yetilmagan mevani sotib bo'lmaydi. Chunki, u hali pishadimi, yo'qmi, ma'lum emas. Shunga o'xshash onasining qornidagi homilani, yelindagi sutni ham sotib bo'lmaydi.

¹. Muhammad Taqiy Usmoniy. Islom moliyasiga kirish. Toshkent-2021

2. Muomalaga qo'yilgan narsa muomalaga qo'yuvchining shar'iy haqqi bo'lishi kerak. Ya'ni, muomalaga qo'yuvchining shaxsiy mulki bo'lib saqlash va manfaatlanish mumkin bo'ladigan narsa bo'lishi kerak. Biror kishi o'ziga mulk bo'lmagan narsani sota olmaydi, hadya qila olmaydi, ijaraga ham qo'ya olmaydi.

Shuningdek, islom diniga ko'ra saqlash va manfaatlanish mumkin bo'lmagan xarom ichimliklar yoki to'ng'izga o'xshash narsalarni muomalaga qo'yish ham mutlaqo mumkin emas.

3. Muomalaga qo'yilgan narsani kelishuv vaqtida topshirish imkoni bo'lishi kerak.

Misol uchun, qochib ketgan hayvonni, havodagi qushni yoki suvdagi baliqni muomalaga qo'yib bo'lmaydi. Agar qo'yilsa, bunday savdo savdo emas deb topiladi.

4. Sotiladigan narsaning narxi ikki tomonga ham ma'qul bo'lishi kerak.

Ya'ni, ikki tomon ham muomalaga qo'yilayotgan narsani yaxshi bilishi, ko'rgan bo'lishi, zarur ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Agar undoq bo'lmasa, muomala joriy bo'lmaydi. Chunki, bunday hollarda keyinchalik urush-janjal chiqishi turgan gap.

5. Muomalaga qo'yilgan narsa pok bo'lishi, iflos yoki islom diniga ko'ra xarom kilingan bo'lmasligi kerak².

Ya'ni, shariat yuzasidan foydalanish mumkin bo'lgan narsa bo'lishi kerak. Shariatda xarom qilingan o'limtik, qon, axlat kabi narsalarni sotib bo'lmaydi. Agar sotiladigan bo'lsa savdo o'z-o'zidan botil bo'ladi va o'z kuchini yo'qotadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan shartlarga muvofik bo'lmagan xar kandy sadob bitimi va kelishuvlar islom moliya tizimiga ko'ra oldi sotti kilish ta'kiklanadi.

Xozirgi kundagi ananaviy moliya tizimidan yana bir farkli jixati islom shartlariga muvofik ishlovchi banklar yoki shaxobchalar o'z mulkiga ega bo'lishi va savdo bitimlarini o'zi tuza olishi shart kilinadi. Agar bank savdo bitimi tuza olmay fakat moddiy ta'minot (pul beruvchi) bilan shug'ullanuvchi xisoblansa bu yukoridagi shartlarga nomuvofik deb belgilanadi va o'z o'zidan islom shartlariga zidligi yuzaga chikadi.

Shunday qilib, islom yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi tartiblarni taklif etadi va inson hayotining barcha jabhalari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (muomala) uchun qoidalar majmuiga rioya etishga amr qiladi. Islom tamoyillariga muvofiq shakllantirilgan moliyaviy va iqtisodiy tizim zamonaviy va umumqabul qilingan tizim bilan qanday qilib va qay darajada uyg'unlashishi mumkin? Mana shunday tizim iqtisodiy resurslarni joylashtirish, taqsimlash va ayirboshlash masalalari bilan qay tarzda shug'ullanishi mumkin? Uning asosiy qoidalaridan ayrimlari qay yo'sinda lozim darajada tahliliy sinchkovlik ila izohlanishi mumkin? Islom tamoyillariga asoslangan moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy tizimni shakllantirish yoki ko'rib chiqishga jalb etilgan tadqiqotchilar mazkur va boshqa ko'plab masalalarni tadqiq etadilar.

Faqat so'nggi bir necha o'n yillikda ushbu moliyaviy va iqtisodiy nizom hamda me'yorlarni zamonaviy tahliliy atamalar nuqtai nazaridan izohlash uchun jiddiy sa'y-harakatlar amalga oshirilganiga qaramay va ko'plab tadqiqotlar chop etilgan bo'lsa-da, baribir «islom moliyasi» yoki «islom iqtisodiyoti» singari «islom» atamasi qo'shilgan turli ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq ta'rifni qo'llash yuzasidan ayrim chalkashliklar saqlanib turibdi. Mana shunday tizimning turli jabhalarini bir butun sifatida emas, balki alohida ko'rib chiqish tendentsiyasi buning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Masalan, «islom moliyasi» atamasi ko'pincha «foizni man

² Muhammad Taqiy Usmoniy. Islom moliyasiga kirish. Toshkent-2021

etuvchi» tizimni ta'riflash uchun ishlatiladi. Lekin mana shunday sodda bayon etish nafaqat noto'g'ri, balki qo'shimcha chalkashliklarning manbasi ham hisoblanadi.

Islom moliya tizimi islom ekotizimining bir qismi bo'lib, mablag'lardan foydalanish va taqsimlash jarayonida islom huquqi qoidalariga muvofiq iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, islomda qarz berish yoki qarz olish evaziga foyda olish man etilgan va barcha moliyaviy jarayonlar haqiqiy iqtisodiy faoliyatga asoslangan bo'lishi kerak. Insonga zarar etkazadigan sohalarni masalan, qimor o'yinlari, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va boshqalarni moliyalashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Deutsche Bank, HSBC, Citi va MasterCard islomiy moliya mahsulotlarini taklif qiladi³. Nestle, Carrefour, Walmart va Whole Foods halol chakana mahsulotlarni sotadi. "Nielsen" global tadqiqoti natijalariga ko'ra, iste'molchilarning 66 foizi halol mahsulotlar uchun ko'proq pul to'lashga tayyor. Yosh iste'molchilar esa yanada sodiqroq ming yillikning 73 foizi halol mahsulot uchun ko'proq pul to'lashga tayyor. Shunday qilib, global transmilliy korporatsiyalar islom moliyasiga katta qiziqish bildirmoqda. Islom banklari loyihalarni moliyalashtirishdan foyda ko'radi. Omonatchilar faqat dividendlarga e'tibor qaratadigan va o'z mablag'lari nimaga investitsiya qilinishini bilmaydigan an'anaviy banklardan farqli o'laroq, islom banklarida omonatchi pul mablag'larining kelajakdagi harakatini ko'rish mumkin, bu yerda mablag'lar biznesga investitsiya qilinadi va foyda daromadga ketadi. bank va omonatchilar o'rtasida taqsimlanadi Islomiy moliyalashtirish modellari qoidalaridan biri risklarni taqsimlashdir. Biznesda foyda bo'lmasa, bank ham, mijoz ham foyda ko'rmaydi. Ammo foyda bo'lsa, u omonatchilar o'rtasida sarmoyaga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Islom moliyasini tushunish uchun asosiy atamalar Islomiy moliyani oson tushunishga yordam beradigan ba'zi atamalar: Murobaha tovar narxiga ustama qo'yilgan yoki qo'yilmagan halol muddatli to'lovdur. Bunda islom banklari mahsulot va xizmatlarni sotib olish, so'ngra ularni muddatli to'lov evaziga sotish bilan shug'ullanadilar.

ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Taqiy Usmoniy. Islom moliyasiga kirish. Toshkent-2021
2. Nodirbek Nabijon . Islomda ijara va muzoraba. Toshkent- Mavaraunnahr.2005-y.
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/2>.
4. <https://www.bukhari.uz/?p=226783>.
5. https://www.researchgate.net/publication/333698447_A_Contemporary_Review_of_Islamic_Finance_and_Accounting_Literature

³https://www.researchgate.net/publication/333698447_A_Contemporary_Review_of_Islamic_Finance_and_Accounting_Literature